



TARJIMA NAZARIYASIDA EKVIVALENTLIK MASALASI

Xusainova Xolisxon Komiljonovna

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

xhusainova@bk.ru

(94)629-13-31

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarjima nazariyasida muhim ro'l o'ynaydigan masalalardan biri ekvivalentlik muammosi to'g'risida ayrim fikr va mulohazalar yoritib berildi. O'zbek hamda g'arb tarjimashunos olimlarining ekvivalentlik masalasida ilgari surgan g'oyalari qiyosiy jihatdan ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: tarjima nazariyasi, ekvivalent, tavsiflash, asl (manba) matn, tarjima (maqsadli) matn, metalingvistik, donotativ, ekspressiv, pragmatic.

Annotation

This article addresses one of the fundamental issues in translation theory — the problem of equivalence. It provides an overview of selected perspectives and reflections on the topic, with a comparative analysis of the ideas advanced by Uzbek and Western scholars in the field of translation studies.

Keywords: translation theory, equivalence, description, source text, target text, metalinguistic, denotative, expressive, pragmatic.

Tarjima san'atga tenglashtirilishi bejizga emas. Mana necha asrlardirkim dunyo xalqlari tarjima sabab bir-birlarining buyuk san'at asarlaridan bahramand bo'lib kelmoqda. Qolaversa, til va madaniyatlar o'rtasidagi aloqa, ilmiy, badiiy hamda siyosiy asarlarning dunyoga tarqalishi ham tarjima faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Tarjima nazariyasida eng muhim va eng murakkab masalalardan biri bu – ekvivalentlik masalasi. Chunki har bir til o'ziga xos leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega bo'lib, ularni boshqa tilga aynan o'tkazish mushkul vazifadir. Shunday ekan, tarjimonning asosiy maqsadi – asl matn mazmunini imkon qadar to'liq, tushunarli va ta'sirchan tarzda yetkazish. "Asliyat va tarjimaning mazmunan to'la-to'kis mos kelishi birinchi darajali zarurat ekanligi tufayli ko'pchilik tadqiqotchilar ekvivalentlikni tarjimaning asosiy belgisi va sharti deb hisoblashadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ekvivalentlik tarjimaga berilgan "bir tildagi matnni o'zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish" kabi ta'rifga mos keladi.", deb yozadi Q. Musayev. "Ushbu holda "ekvivalentlik" tushunchasi tarjimaning sifatli, yuqori bahoga loyqlik xususiyatini anglatadi. Damak, ekvivalent tarjima "yaxshi", "to'g'ri" tarjima sanalgan holda, ekvivalent bo'lmagan tarjimoni to'g'ri (adekvat, to'laqonli) tarjima deb bo'lmaydi. Shunday qilib, ekvivalent tarjima asliyat mazmunini o'zga tilga vazifaviy-



uslubiy jihatdan to‘la-to‘kis talqin etishdan iborat jarayondir. Buning ma‘nosi shuki, til belgilari yig‘indisidan iborat matn mazmuni tarjimada vazifaviy qayta yaratiladi”. [Musayev, 2005.55]

Tarjima va tarjimada ekvivalentlik tushunchalari to‘g‘risida bir qancha olimlar o‘zlarining fikrlarini ilgari surganlar. Biz ham ushbu mavzu bo‘yicha xorijiy tillarni qiyosiy o‘rganishda duch kelinadigan savollarga javob topish va tadqiq qilish niyatida ayrim mulohazalarga to‘xtalib o‘tmoqdamiz. “Matnda uchraydigan turli lisoniy vositalarning morfologik, sintaktik, leksik, stilistik sathlardan asliyat va tarjima tillarida o‘zaro ekvivalent yoki ekvivalenti mavjud bo‘lmaslik holatlari tufayli tarjima nazariyasi va kontrastiv lingvistikada ekvivalentlik masalalarida ayrim fikr va mulahazalar ilgari suriladi. Tarjimada ekvivalentlik jarayoni manba tilidan tarjima tiliga o‘tishda o‘quvchida to‘g‘ri ma‘lumotni shakllantirish holatida sodir bo‘ladi” [Yo‘ldoshev;2023.301].

Verner Koller o‘zining “Tarjimashunoslikka kirish” (1979,1992,2011) kitobida muammoga ko‘proq matn bilan bog‘liq yondoshadi. U tarjimani tashkil etuvchi maqsadli matn va manba matn o‘rtasidagi munosabatni aniqlashtirish muhimligini ta’kidlaydi [Koller,1990.16]. U quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

Tarjima manba matndan maqsadli matnga olib boradigan lingvistik-matnli operatsiya natijasidir, bu orqali asl matn va maqsadli matn o‘rtasida tarjima (yoki ekvivalentlik) munosabati o‘rnatiladi. Emperik fan sifatida tarjimashunoslikning markaziy vaziyfasi tarjimonlarning tarjimalarida taklif etilayotgan yechimlarni tahlil qilish, tavsiflash, tizimlashtirish va muammolarga solishdan iboratdir [Koller,1990.16/17].

Koller bu vazifani juda boy misol muhokamasidan foydalanib amalga oshiradi, u shunday tushintiradi:

Tarjima AS (Ausgangssprache- asl matn) iborolari (leksemalar, sintagmalar, gaplar) bilan ZS (Zielsprache- maqsadli matn) iboralarini taqqoslaydigan lingvistik-matnli jarayondir. Lingvistik tarjimashunoslik potensial topshiriq variantlarini (ekvivalentlarini) tavsiflaydi va joriy ekvivalentlarni tanlashni belgilovchi omillar va mezonlarni aniqlaydi. Unga ko‘ra quyidagi kichik vazifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ekvivalentlik munosabatlarni ham umumiy, ham alohida til birliklariga nisbatan tavsiflashning nazariy asoslarini ishlab chiqish.
2. Potensial tarjima ekvivalentlarini aniqlash maqsadida tarjima matnlari asosida tilni sintaktik, semantik va stilistik darajalarda taqqoslash.
3. Muayyan tarjima qiyinchiliklarining til juftligi bilan bog‘liq tavsifi (masalan metafora, madaniyatga xos elementlar, til qatlamlari, til o‘yinlari va boshqalar).
4. Tarjima ishlarining turlari uchun sintaktik, leksik va stilistik sohalarda tarjima jarayonlarining tavsifi [Koller 2000.125b].





Tarjimashunos olim Qudrat Musaev esa o'zining "Tarjima nazariyasi asoslari" asarida ekvivalentlik va adekvatlik hodisalariga batafsil to'xtalib o'tgan. Asliyat va tarjima matnlarining o'zaro muvofiqlik darajalarini besh turga ajratgan.

Q.Musaevning fikricha, asliyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asosan quyidagicha namoyon buladi:

1. Ekvivalentlikning birinchi turida tarjimalarning asliyatga uyg'unligi ko'z ilg'amas darajada namoyon bo'ladi. Mazkur tarjima turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabatlar asosan ushbu ko'rinishlarga ega bo'ladi: 1) leksik tarkib va sintaktik qurilishdagi nomuvofiqlik; 2) ikki holatda ham bir xil fikr bayon etilayotganligiga qaramasdan, asliyat va tarjimada ifoda etilgan axborot o'rtasida bevosita mazmuniy yoki mantiqiy bog'lanishining ko'zga tashlanmasligi; 3) asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasidagi umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past.

2. Ekvivalentlikning ikkinchi turida tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan til vositalari ma'nolarining bir xil emasligi bilan izohlanadi. Bu guruhda asliyat bilan tarjima matnlarini tashkil etadigan ko'pchilik so'z va sintaktik qurilmalar o'rtasida bevosita yaqinlik ko'zga tashlanmasa-da, ikki til matnlari ekvivalentlikning birinchi turiga nisbatan mazmunan ko'proq o'xshashdir.

3. Ekvivalentlikning uchinchi turida asliyat va tarjima matnlari orasida quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi: ikki tilning mazmunan o'zaro mos ifoda vositalari leksik tarkib va goho sintaktik qurilish jihatlaridan to'la uyg'un bo'lmaydilar.

4. Ekvivalentlikning to'rtinchi turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabat ikki til matnlari leksik tarkiblariing yanada ko'proq o'xshashligi bilan izohlanadi, ya'ni asliyatdagi ko'pchilik so'zlarga tarjima tilida mazmunan yaqin so'zlarni qidirib topish, shuningdek, tarjima tilida asliyatdagi ifoda vositasi singaktik qurilishiga mo'e sintaktik qurilishli ifoda vositasidan foydalanish zarurati paydo bo'ladi.

5. Ekvivalentlikning beshinchi turda asliyat va tarjima matnlari orasidagi ekvivalentlik yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ushbu ekvivalentlik turi ikki til matnlarining bir xil qurilishga egaligi, leksik tarkiblarining to'la o'xshashligi, asliyat asosiy qismlarining tarjimada batamom saqlanishi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, asliyat va tarjima orasidagi mazmuniy ekvivalentlik munosabatlarini tahlil qilish bunday munosabatlarning asosan besh turdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Ekvivalentlikning har qaysi turida turli tillar matnlari o'rtasidagi semantik umumiylik tillar semantik tizimi xususiyatlarining umumiylikiga asoslanadi [Musayev,2005.54-59].

Til-birlamchi navbatda, o'zaro aloqa vositasi ekanligi nuqtai nazaridan

SH.Sirojiddinov tarjimaning kommunikativ modeli yondoshuvlariga asoslanib, tarjima ekvivalentligi masalasi tadqiqotida o'ziga xos ravishda tushuntirib bergan. Uning ushbu modeli o'z ichiga quyidagi olti yondashuvni qamraydi:

1. Ob'ektiv borliqning asliyat tilida ifodalangan bayonini aks ettirish (denotativ)



2. Asliyat muallifining yaratilayotgan matnga munosabatini ochib berish (ekspressiv)
3. Tildagi nutq signallari, mimika, ishora va o'zaro kontaktga aloqador umumiy frazalarning muvofiqlik darajasini belgilash va ta'minlash (fatik)
4. O'zaro muloqotda foydalanilayotgan til hususiyatlarini tahlil qilish (metalingvistik funktsiya)
5. Tarjimada buyruq va amrlarni ifodalash (iroda funktsiyasi)
6. Tarjimada badiiy tasvir vositalari va semantik muqobillik jihatlarini to'liq ta'minlash (poetik funktsiya) [Fatxuddinova, 2021.144]

F. G. Königs (1981) esa terminologik jihatdan soddalashtirilgan va mazmunan biroz o'zgartirilgan 5 ekvivalentlik turini taklif qiladi:

1. Denotativ;
2. Diastatik-diatopik;
3. Matn-normativ;
4. Pragmatik;
5. Formal ekvivalentlik.

Bundan tashqari, u yana ikkita ekvivalentlik turini kiritadi:

6. matnga yo'naltirilgan ekvivalentlik, ya'ni muallifning matniga bergan funksiyasiga bog'liq bo'lgan,
7. finalistik ekvivalentlik, ya'ni tarjima qilinishi kerak bo'lgan funksiyani anglatadi.

Matndan tashqari ekvivalentlik turlari (6 va 7) tarjima birliklariga asoslangan matnga oid ekvivalentlik turlari (1–5)dan butunlay boshqa darajada joylashadi. Finalistik ekvivalentlikda funktsiya davom ettirilishi va funktsiya o'zgarishi farqlanadi; bunda funktsiya o'zgarishi shuni anglatadiki, bu endi haqiqiy tarjima emas, balki boshqa turdagi matnni qayta ishlashdir [].

F.G. Königs yuqorida keltirib o'tilgan ekvivalentlikning 7 ta turining har birini tarjima jarayonida matnlarning o'zaro moslik darajasiga qarab bir necha yondashuvlarga bo'lib o'rganadi. Ushbu yondashuvlarni misollar bilan keyingi maqolamizda yoritib beramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekvivalentlik tushunchasi har qanday tilshunos, tarjimashunos olim yoki tarjimon o'z faoliyati davomida to'qnash keladigan asosiy muammolardan biridir. Shu nuqatai nazardan kelib chiqib olimlar ekvivalentlik masalasi bo'yicha o'zlarining yondashuvlarini ishlab chiqqan. Tarjimondan esa tarjima qilinayotgan asarning xarakteridan kelib chiqqan holda qaysi yondashuvni tanlash va qaysi ekvivalentlik turidan foydalanish keraklini aniqlash talab qilinadi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари.- Тошкент: “ФАН”, 2005. – 55-57 б.
2. Yo‘ldoshev U. 2023: Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari, “OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB MASALASI: TAHLIL, TASNIF, QIYOS” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada maqola.
3. Koller, W. (1990): Zum Gegenstand der Übersetzungswissenschaft. In: Arntz, R./Thome, G. (Hrsg.), 19–30.
4. Koller, W. (2000): Grundfragen der Übersetzungswissenschaft – Nachtrag zu Leipzig 1970. In: Schmitt, P. A. (Hrsg.), 121–135.
5. Königs, F. G. (1981): Zur Frage der Übersetzungseinheit und ihre Relevanz für den Fremdsprachenunterricht. In: Linguistische Berichte, 74, 82–103.
6. Fatxuddinova I. Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. 2021: Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences – ilmiy jurnalida maqola.

